


VII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2022- yil yanvar-mart oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 5832 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (535 kishi) shahrida, Nishon (745 kishi), Chiroqchi (644 kishi), Qarshi (502 kishi), Koson (477 kishi), Yakkabog‘ (427 kishi), Kitob (420 kishi), G’uzor (415 kishi), Qamashi (389 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 4312 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi (502 kishi) shahrida, Chiroqchi (606 kishi) Koson (393 kishi), Qarshi (392 kishi), Yakkabog‘ (369 kishi), Qamashi (333 kishi), G’uzor (304 kishi), Kitob (291 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O’tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 532 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni¹⁾
 (2022- yil 1- aprel holatiga, kishi)

	<i>Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2021- yil yanvar- mart</i>	<i>2022- yil yanvar- mart</i>	<i>2021- yil yanvar- mart</i>	<i>2022- yil yanvar- mart</i>	<i>2021- yil yanvar- mart</i>	<i>2022- yil yanvar- mart</i>
Viloyat bo‘yicha:	24543	5832	7061	532	7061	664

shaharlar:

Qarshi	1635	535	417	26	417	59
Shahrisabz	918	235	141	68	141	24


tumanlar:

G‘uzor	1489	415	599	108	599	76
Dehqonobod	1297	159	516	11	516	11
Qamashi	1154	389	618	44	618	14
Qarshi	4942	502	584	22	584	83
Koson	584	477	121	2	121	35
Kitob	1826	420	377	34	377	4
Mirishkor	675	149	348	26	348	25
Muborak	948	315	436	17	436	12
Nishon	1363	745	472	43	472	-
Kasbi	5523	227	74	-	74	135
Chiroqchi	1090	644	2083	16	2083	117
Shahrisabz	531	193	138	70	138	21
Yakkabog‘	568	427	237	45	237	48



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahrida va Qarshi, Chiroqli, Kasbi, Qamashi tumanlarida yuqori bo‘lgan.

Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾


	<i>2021- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>
Viloyat bo'yicha:	5481	4312
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	677	502
Shahrisabz	321	164
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	665	304
Dehqonobod	64	146
Qamashi	310	333
Qarshi	569	392
Koson	142	393
Kitob	1088	291
Mirishkor	32	84
Muborak	256	223
Nishon	391	242
Kasbi	447	206
Chiroqchi	175	606
Shahrisabz	152	57
Yakkabog'	192	369

¹⁾Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi¹⁾

(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



■ 2021- yil yanvar-mart

■ 2022- yil yanvar-mart

Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Chiroqchi, Qarshi,G'uzor, Koson va Qamashi, Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

¹⁾ Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2022- yil yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 662,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.



Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2022- yil 1- aprel holatiga qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

(dastlabki qayta hisoblangan)

**O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda**

Qashqadaryo viloyati bo'yicha - jami	2662,2
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	4350,5
Qurilish	3510,2
Savdo	2003,0
Tashish va saqlash	3803,5
Axborot va aloqa	3514,0
Moliya va sug'urta faoliyati	6070,9
Ta'lim	2215,7
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1904,4
Boshqa faoliyat turlari	2966,6

O‘rtacha oylik ish haqining tarmoqlar kesimida, ming so‘m (2022- yil 1- aprel holatiga)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat tumanlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 611,6 ming so‘mmi (135,7 %), Muborak tumanida 3451,3 ming so‘mmi (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 129,6 %), G’uzor tumanida 3 015,9 ming so‘mmi (113,3%), va tashkil etgan bo‘lsa, Mirishkor tumanida 2049,6 ming so‘mmi (77,0%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hududlar kesimida¹⁾
 (2022- yil 1- aprel holatiga)

	<i>Mehnat resurslari soni</i>	<i>O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so‘mda)</i>
Viloyat bo‘yicha:	x	2662,2
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	x	3611,6
Shahrisabz	x	2113,9
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	x	3015,9
Dehqonobod	x	2316,2
Qamashi	x	2056,8
Qarshi	x	2060,7
Koson	x	2218,3
Kitob	x	2086,2
Mirishkor	x	2049,6
Muborak	x	3451,3
Nishon	x	2693,6
Kasbi	x	2186,2
Chiroqchi	x	2321,9
Shahrisabz	x	2268,4
Yakkabog‘	x	2117,4

¹⁾dastlabki ma’lumot

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so‘mda)



Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil yanvar-mart oylarida 822,0 ming so‘mni tashkil etgan. Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasiga o‘zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.